



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **XIX ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK XONLIKLARI VA AMIRLIGIDA INSON VA JAMIYAT MASALASI**

**Tag‘oyeva Dilnavoz**

Buxoro davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Jamiyat va inson masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng muhim va dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Inson jamiyatda yashaydi, rivojlanadi va o‘zining ijtimoiy mohiyatini namoyon etadi. Shu bilan birga, jamiyat ham insonlar faoliyati natijasida shakllanadi va taraqqiy etadi. Mazkur maqolada jamiyat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning tarixiy rivoji, falsafiy talqinlari hamda zamonaviy muammolari keng yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** inson, jamiyat, ijtimoiylashuv, ma’naviyat, shaxs, globallashuv, qadriyatlar, insonparvarlik.

## **ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА В УЗБЕКСКИХ ХАНСТВАХ И ЭМИРАТЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА**

**Таг‘ёева Дильнавоз**

Бухарский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

### **Аннотация**

Вопрос о взаимосвязи общества и человека является одной из важнейших и актуальных тем социальных и гуманитарных наук. Человек живет в обществе, развивает и проявляет свою социальную сущность. В то же время общество формируется и развивается в результате человеческой деятельности. В данной статье всесторонне рассматриваются взаимоотношения общества и человека, их историческое развитие, философские интерпретации и современные проблемы.

**Ключевые слова:** человек, общество, социализация, духовность, личность, глобализация, ценности, гуманизм.

## **THE ISSUE OF HUMAN AND SOCIETY IN UZBEK KHANATES AND THE EMIRATE IN THE SECOND HALF OF THE 19TH – EARLY 20TH CENTURY**

**Tagoyeva Dilnavoz**

Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

The issue of society and man is one of the most important and relevant topics of social and humanitarian sciences. Man lives in society, develops and manifests his social essence. At the same time, society is also formed and develops as a result of human activity. This article comprehensively covers the relationship between society and man, their historical development, philosophical interpretations and modern problems.

**Keywords:** man, society, socialization, spirituality, personality, globalization, values, humanism.

Inson va jamiyat masalasi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Inson jamiyatda yashaydi va rivojlanadi, jamiyat esa inson faoliyati mahsuli sifatida shakllanadi. Shu bois mazkur ikki tushuncha bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi.

Jamiyat — bu insonlar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi boʻlib, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy organizmdir. Jamiyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va maʼnaviy sohalaridan tashkil topadi. Jamiyatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy munosabatlar tizimi, umumiy hudud, madaniyat va qadriyatlar birligi, boshqaruv tizimi.

Inson biologik mavjudot boʻlish bilan birga ijtimoiy mavjudot hamdir. U ong, tafakkur, nutq va mehnat orqali jamiyatda faol ishtirok etadi. Insonning ijtimoiy mohiyati quyidagilarda namoyon boʻladi: ijtimoiy munosabatlarga kirishish, madaniy qadriyatlarni oʻzlashtirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻshish.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida oʻzbek xonliklari va amirliklarida aholi ijtimoiy turmush darajasi ancha past, iqtisodiy tuzum esa qoloq edi. Madaniy-maʼrifiy hayotda islom dini peshvolarining taʼsiri kuchli boʻlib, jamiyat eskicha qarashdagi insonlar bilan toʻla edi. Mazkur davr kishilari orasida eski qarashlar, tasavvuf falsafasi anʼanalari va shariatga asoslangan turmush tarzini targʻib qiluvchilar koʻpaygan edi. Oʻrta asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlarimiz asarlarini tarjima qilish jadallashib, mazkur adabiyotlar tezlik bilan xonadonlarga kirib bordi. Diniy targʻibot ishlarining faollashuvi dunyoviy qarash vakillari bilan diniy ulamolarda oʻrtasidagi ziddiyatning tobora kuchayishiga sabab boʻldi.

Kalom falsafasi va shariat axloqiga oid klassik adabiyotlarni arab-fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilish va nashr ettirish, masjid va madrasalarda bedilxonlik, mashrabxonlik kabi turli sheʼrxonliklar, gurunglar avj oldi [1; 22-b.].

Bu davr kishilari orasida savodlilardan koʻra savodsizlar koʻpchilikni tashkil qilib, ularning aksariyati mavjud tuzum qurbonlari, raiyat — xalqning soliq toʻlovchi asosiy qatlami edi. Soliqlar va amaldorlarning nohaqliklaridan charchagan xalq orasida ilmga chanqoq, bilimga ragʻbati baland insonlar ajralib chiqib boshladi. Ular najot ilm va maʼrifatda ekanligini tushunib yetgan kishilar edi. Endilikda odamlar inson aql-zakovatining kuchiga, olamni oʻzgartirish borasidagi salohiyatiga koʻproq ishona boshladilar, ogʻir turmush tashvishlaridan, zulm va adolatsizliklardan xalos qiluvchi yagona qudrat bilim va ilm ekanligini anglay boshladilar [2; 306-b.]. Bu orzular maʼrifatparvarlar maqsadi bilan mushtarak boʻlib, harakat safining kengayganligidan dalolat berar edi. Qoloqlikdan qutulish, xurofotdan yiroq boʻlish, yangicha hayot tarzi, taraqqiyot va ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga umid paydo boʻla boshladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Tarix davomida jamiyat va inson oʻrtasidagi munosabatlar turlicha shakllangan. Ibtidoiy jamiyatdan to hozirgi zamonaviy jamiyatgacha boʻlgan davrda insonning oʻrni va roli oʻzgarib borgan. Qadimgi davrda inson tabiatga toʻliq bogʻliq boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda u tabiatni oʻzgartirish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu esa jamiyat rivojining muhim bosqichlarini belgilab berdi. Inson va jamiyat masalasi koʻplab faylasuf olimlar tomonidan oʻrganilib, tahlil etilgan.

Qadimgi yunon faylasuflari Aristotelning “Siyosat” (“Politika”), Platonning “Davlat” (“Respublika”), sharq olimlari Ibn Sinoning “Donishnoma”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” (Toshkent: Fan, 1993), Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti), jahon olimlaridan Thomas Hobbesning “Leviathan” (London, 1651), John Lockening “Two Treatises of Government” (London, 1689), Jean-Jacques Rousseauing “The Social Contract” (Paris, 1762), Immanuel Kantning “Perpetual Peace” (1795), Georg Wilhelm Friedrich Hegelning “Philosophy of Right” (1820), Karl Marxning “Das Kapital” (Hamburg, 1867), Emile Durkheimning “The Division of Labour in Society” (1893), Max Weberning “Economy and Society” (1922), Talcott Parsonsning “The Social System” (New York, 1951), Anthony Giddensning “The Constitution of Society” (Cambridge, 1984), Erich Frommning “The Sane Society” (New York, 1955), Zygmunt Baumanning “Liquid Modernity” (2000), Michel Foucaultning “Discipline and Punish” (Paris, 1975), Jürgen Habermasning “The Theory of Communicative Action” (1981), Pitirim Sorokinning “Social and Cultural Dynamics” (1937) asarlarida inson va jamiyat masalasi ilmiy-falsafiy jihatdan yoritilgan.

Oʻzbek olimlaridan A. Abduqodirovning “Shaxs va jamiyat falsafasi”, B. Qodirovning

“Ijtimoiy falsafa”, S. Yo‘ldoshevning “Falsafa asoslari” kabi asarlarida inson va jamiyat masalasi Sharq mutafakkirlarining ilmiy nazariyalariga tayangan holda, bugungi kun manzarasi asosida tahlil etilgan. Jumladan, turli davrlarda qarashlar xilma-xilligi, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlar rivojlanib va o‘zgarib borgani ko‘rinadi. Aristotel insonni “ijtimoiy mavjudot” deb atagan bo‘lsa, Ibn Sino inson kamolotini ilm va axloq bilan bog‘lagan, Karl Marks esa jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy omillar bilan izohlagan.

Bu mutafakkirlar orasida inson va jamiyat masalasini o‘rgangan, o‘z davri jamiyat muammolari va inson dardi bilan yashagan jadidlarni alohida ta‘kidlash lozim.

Jadidchilik harakati birdaniga vujudga kelgan emas. Ma‘rifatparvarlik harakatining dastlabki bosqichida sunniylik va uning bag‘rida qayta shakllangan darvishlik, qalandarlik harakatlari, shuningdek, bedilxonlik, mashrabxonlik kabi she‘rxonliklar hamda o‘sha gurunglarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar uning g‘oyaviy-nazariy asosi vazifasini bajargan. Shunday sharoitda chor Rossiyasi O‘rta Osiyo yerlarini bosib oldi va ushbu hududlarda mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish natijasida yerli aholi milliy madaniyatini siqib chiqarishga urinish boshlandi. Uning o‘rniga Yevropa madaniyati jadal kirib kela boshladi. Natijada yerli aholining noroziligi kundan kunga ortib bordi.

Shundan so‘ng ma‘rifatparvarlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy qoloqlikni ilm-fan va madaniy-ma‘naviy merosni o‘rganish yordamida bartaraf etishga qaratilgan g‘oyaviy harakat sifatida vujudga keldi. Ma‘rifatparvarlik ijtimoiy taraqqiyot sari borayotgan ilg‘or ziyolilar dunyoqarashini ifodalardi. Shuni alohida ta‘kidlash zarurki, O‘rta Osiyo mamlakatlarida ma‘rifatparvarlik harakati o‘lka chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan, mustamlakachilik siyosati avj olgan bir paytda shakllandi. Bunday holat, shubhasiz, O‘rta Osiyoda ma‘rifatparvarlik harakatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

### **Tahlil va natijalar**

O‘rta Osiyo mamlakatlarida ma‘rifatparvarlik o‘z taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya‘ni XIX asrning ikkinchi yarmida, o‘tmish avlodlar madaniy-ma‘naviy merosini, musulmon axloqi-odobi qoidalarini targ‘ib va tashviq qildi. Zamondoshlarini bilim va ilm egallashga chorladi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloqligini, kishilar madaniy-ma‘naviy saviyasining pastligini tanqid qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy qoloqlikdan chiqish, jamiyatni insonparvarlashtirish yo‘llarini izladi. Bunday kayfiyatni XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan buxorolik ma‘rifatparvarlar Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat va boshqalarning qarashlarida ko‘rish mumkin.

Buxorolik ma‘rifatparvar Ahmad Donish butun jamiyatni inson manfaatiga bo‘ysundirmoq uchun odamlar xulq-atvorini tubdan o‘zgartirmoq lozim, deb hisoblardi. Buning uchun, eng avvalo, inson o‘zining kimligini, nimadan tashkil topganini bilmog‘i zarur, deb uqtirardi. Uning tushuntirishicha, inson tana bilan ruh birligidan iborat. U o‘z asarlarida tana bilan ruhning o‘zaro aloqadorligi haqida fikr yuritib, inson tanasi bilan ruhini birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydi, chunki “ruh jismda barhayotdir, jismdan tashqarida ruh yo‘qdir” [3; 166-b.], deb ta‘kidlaydi.

Ahmad Donishning fikricha, ruh ikki ko‘rinishga ega bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishda ruh sof, muqaddas, ilohiy bo‘lib, hamma jismlarga o‘z nurini sohib turadi. Ikkinchi ko‘rinishda esa ruh “narsalar dunyosiga kirgan bo‘lib, narsalar dunyosida mavjuddir va o‘limga mahkumdur” [4; 165-b.]. Inson tanasidagi ruh xuddi shu ikkinchi ko‘rinishdagi ruhdur. Shuning uchun ham u o‘limga mahkum etiladi. Ruhning bir tanadan boshqa tanaga ko‘chib yurishi haqida Sharqda keng tarqalgan tanosuh nazariyasini tanqid qiladi. Tanosuh ta‘limotini tanqid qilishda Mirzo Bedilning ruh va tana to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanadi.

Ahmad Donish ruh va tana birligidan iborat inson olamni, xususan, o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitni o‘zgartirishga qodir, deb o‘ylaydi. Buning uchun nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarni ham bilish zarur, deb hisoblaydi.

“Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlarni kezib o‘rganish uchun, yer osti

boylklarini topish uchun, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini talqin etish uchun, uning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz", deb yozadi.

Buxoro amirligi hududida yashovchi fuqarolar turmush tarzi, xususan, ularning madaniy-ma'naviy saviyasining pastligidan Ahmad Donish qattiq afsuslanadi. Kishilar madaniy-ma'naviy saviyasini oshirishning birdan-bir yo'li jamiyat hayotini insonparvarlashtirishdir. Buning uchun esa mavjud ijtimoiy tartibotlarni o'zgartirmoq zarur, deb o'ylaydi. Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni insonparvarlashtirishga qaratilgan isloh loyihasi bilan Buxoro hukmdori Amir Muzaffariddinga murojaat qiladi, ammo rad javobini oladi.

Ahmad Donish jamiyatni insonparvarlashtirishning eng muhim sharti davlatni isloh qilishdir, deb tushunadi. Davlat bir guruh kishilarning emas, balki xalq manfaatini himoya qilmog'i, davlatni boshqarib turgan hukmdor ma'rifatli, odil va donishmand bo'lmog'i shart. Hukmdor muhim davlat ishlarini hal qilishda o'z atrofidagi amaldorlar bilan maslahatlashmog'i darkor. Mamlakatni ana shunday kishi boshqargandagina jamiyatda ijtimoiy adolat normalari qaror topadi. Adolatsizlikka asoslangan, o'z fuqarolari haqida qayg'urmaydigan davlat uzoq yashay olmaydi.

Ahmad Donish fikriga ko'ra, jamiyatni insonparvarlashtirishning eng muhim shartlaridan biri ijtimoiy adolat normalariga tayanish, xususan, odamlar orasida tenglikni qaror toptirishdir. Ayniqsa, jamiyatda yaratilgan moddiy va ma'naviy boylklarni teng taqsimlash zarur. O'shanda odamlar orasidagi turli mojarolar va kelishmovchiliklar bartaraf etiladi.

Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish haqida qoraqalpoq shoiri Berdimurod Berdaq ham qimmatli fikrlar bildirgan. Uning fikriga ko'ra, davlat xalqqa, o'z navbatida, odamlar esa Vataniga va xalqiga xizmat qilishi, o'z mehnatidan zavq olishi darkor. Inson jamiyatda qadrlanishi va hurmat qilinishi kerak. Buning uchun har bir kishidagi rostgo'ylik va haqiqatgo'ylik e'zozlanishi lozim. Ma'naviy-axloqiy qiyofasida bunday xislatlar bo'lmagan kishini Berdaq chin inson deb hisoblamaydi.

Berdag fikriga ko'ra, fuqarolar ma'naviy-axloqiy qiyofasidagi salbiy illatlar ular yashayotgan zamona va ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan bog'liq. Ma'naviy-axloqiy yaramas illatlarni tugatish uchun, eng avvalo, ijtimoiy adolatsizlikka barham berish, kishilarni ma'rifatli qilish zarur. Jamiyatda ma'rifatli kishilarni ko'paytirish uchun mamlakatni vijdonli, odil, o'z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo'yuvchi kishi boshqarmog'i zarur, deb hisoblaydi.

Har qanday jamiyatda ham fuqarolarning katta qismini xotin-qizlar tashkil etadi. Shuning uchun Berdaq jamiyat hayotini insonparvarlashtirish xotin-qizlar turmush tarzi va ularning madaniy-ma'naviy saviyasi bilan bog'liqligini alohida ta'kidlaydi. Jamiyatda ayollar bilan erkaklar teng bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ayol erkakning sodiq do'sti bo'lib, erini qattiq sevishi va hurmat qilishi zarur. U ayolning katta qalin evaziga "sotilishi"ni qoralaydi. Bunday odatni aqlsizlik va axloqsizlik alomati deb baholaydi. Jamiyat hayotidagi ayrim urf-odatlar ayol izzat-nafsiga tegishi, uning insoniy haq-huquqlarini poymol qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Qoraqalpoq shoiri xotin-qizlarning insoniy haq-huquqlarini himoya qilishga chaqiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo ma'rifatparvarlari jamiyat hayotini insonparvarlashtirish uchun mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy qoloqlikdan olib chiqish zarur, deb hisobladilar. Buning uchun fuqarolarni bilimli va ilmiy qilish kerak, degan g'oyani ilgari surdilar. Boshqacha aytganda, ma'rifatli insonni shakllantirmasdan turib jamiyatni insonparvarlashtirib bo'lmashligini, o'z navbatida, insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti bilim va ilm bilan bevosita bog'liq ekanligini tushuntirishga harakat qildilar. Eng muhimi, inson o'zligini bilmog'i uchun bilimli va ilmiy bo'lishi zarurligini qayta-qayta takrorladilar. Bunday fikr-mulohazalarni mashhur o'zbek ma'rifatparvarlari Sattorxon Abdulg'afforov va qo'qonlik shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat qarashlarida ham ko'rish mumkin.

"Inson, — deb yozadi Sattorxon Abdulg'afforov, — tayyor bilim bilan tug'ilmaydi. U bilimga asta-sekin, harakat natijasida erishadi. O'z tabiatiga ko'ra odam ulg'ayishi bilan uning aql-idroki va qobiliyati ham ko'rish, eshitish natijasida kun sayin rivojlanadi. Insonning aql-idroki

o‘sgan sari, avvalo, o‘zining kimligini bilishga harakat qiladi. Insonning asosiy burchi boshqa kishilarga foydali xizmat qilishdan iborat. Agar u o‘zini o‘zi bilmasa, bu burchini qanday ado etadi? O‘zini o‘zi bilish uchun qo‘l-oyoq, ko‘z, ochlik va tashnalikni his qiluvchi boshqa ichki sezgi organlari orqali olinadigan bilim odam uchun kifoya qilmaydi. Agar biz shu orqali o‘zimizni bilamiz desak, yangilashgan va xato qilgan bo‘lamiz, chunki bunday bilimga hayvonlar ham egadirlar. Agar biz shu bilim bilan kifoyalansak, ulardan hech farq qilmaymiz. Biz o‘zimizning qanday ekanligimizni, qayerdan kelib chiqqanligimizni va qayerga borishimizni, bu dargohga nima uchun kelganligimizni, baxt va baxtsizlik nimadan iborat ekanligini bilishimiz zarur. Bularni bilish uchun asosiy vosita ilm, ilmning turlari va boshqa fanlardir. Ilm olishning asosiy maqsadi — foydali xizmat qilishdir” [5; 5-b.].

Sattorxon Abdulg‘afforov fikriga ko‘ra, jamiyatni insonparvarlashtirishning asosida ilm-fan va ma‘rifat yotmog‘i zarur. Ilm-fan jamiyat farovonligi va fuqarolar ruhiy-ma‘naviy kamolotining garovidir. Uning tushuntirishicha, ilm-fan taraqqiyotiga erishishning eng muhim vositasi boshqa mamlakatlar va xalqlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, ular bilan turli madaniy-ma‘rifiy aloqalarni rivojlantirishdir.

Turli xalqlar orasidagi do‘stlik va birodarlik aloqalarini rivojlantirish jamiyatni insonparvarlashtirishning muhim sharti ekanligini Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ham qayta-qayta ta‘kidlaydi. Jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand bo‘lish uchun boshqa xalqlar tilini, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini o‘rganish lozim, deydi.

Furqat fikriga ko‘ra, jamiyatda ma‘naviy qashshoq, nodon va galvars kishilarning ko‘payishi katta fojia va kulfatdir. Fan nodon va omi kishilar yo‘lini yorituvchi, ularni to‘g‘rilik tomon boshlovchi yo‘lchi yulduzdir. Ilm-fan qanchalik tez rivojlansa, jamiyat a‘zolarining orzuumidlari shunchalik tez ro‘yobga chiqadi, ma‘naviy qashshoq odamlar soni kamayadi, ma‘rifatli odamlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyat hayoti shunchalik tez insonparvarlashadi, degan xulosaga keladi [6; 184-b.].

XIX asrning ikkinchi yarmidayoq O‘rta osiyolik mutafakkirlar jamiyatni insonparvarlashtirish, uni ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa madaniy-ma‘naviy inqirozdan olib chiqish uchun musulmon xotin-qizlarini savodli qilish g‘oyasini ilgari surdilar. Xususan, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat xotin-qizlar erkaklar bilan teng bilim olishlari lozimligini, ayollar erkaklar bilan jamoat joylarida birga bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida O‘rta osiyolik ma‘rifatparvarlar jamiyat hayotini insonparvarlashtirish uchun uni demokratlashtirish zarur, buning uchun mamlakatda mavjud bo‘lgan tartib-intizomni tubdan o‘zgartirish, ijtimoiy adolat normalariga amal qilish lozim, degan xulosaga keladilar. Ma‘rifatparvar-demokrat shoirlar Muqimiy, Zavqiy, Hamza jamiyatdagi noxush holatlar, odamlar turmush tarzidagi qoloqlik, fikrlash madaniyatidagi zaiflik va madaniy-ma‘rifiy qashshoqlik sabablarini ochib tashladilar. Hokimiyatning xalq manfaatidan yiroq bo‘lgan bir guruh mullalar, eshonlar va amaldorlar qo‘lida ekanligini ta‘kidlab, ularning g‘ayriinsoniy qiliqlarini fosh etdilar. Ayniqsa, Muqimiy chor Rossiyasining Turkiston o‘lkasida amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid qildi. Mustamlakachilik siyosati tufayli go‘zal Farg‘ona vodiysi shaharlari va qishloqlari xarobaga aylanayotganligini, odamlar kundankunga kambag‘allashib, nochor holda yashayotganligini, inson haq-huquqlari toptalayotganligini, xususan, mustamlakachilar ko‘klarga ko‘tarib maqtagan “demokratik saylov sistemasi” qalbaki ekanligini fosh etdi. Chor Rossiyasi va mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchaligi, shafqatsizligi, aldanchiligi va axloqiy tubanligini masxara qildi. Jamiyat moddiy asosini yaratuvchi mehnatkashlar och-yalang‘och, qashshoq yashayotgan bir sharoitda mahalliy boylarning aysh-u ishratda umr kechirayotganligi bilan murosa qila olmadi. Zulum-zo‘rluk va adolatsizlikdan g‘azabga keldi. Kishilarni mavjud ijtimoiy tuzumning adolatsiz ekanligini anglashga [7; 185-b.], bilimga, ilmga, insof-diyonatga va demokratiyaga asoslangan insonparvar jamiyat qurishga chaqirdi.

Zavqiy fuqarolar manfaatini himoya qiladigan adolatli, insonparvar jamiyatni “dono va ma‘rifatparvar hukmdor” barpo etadi, degan g‘oyadan voz kechdi. Xonlar, beklar, eshon-u

mullalar turmush tarzini kuzatgan shoir xon cheksiz hokimiyat egasi bo'la turib, bu hokimiyatdan faqat shaxsiy manfaati uchun foydalansa, fuqarolar manfaatini himoya qilmasa, doimo aysh-u ishrat va kayf-u safo bilan mashg'ul bo'lsa, mamlakat o'ziga o'xshagan buzuq kishilar maslahati bilan idora qilinsa, bunday mamlakat, shubhasiz, xarobaga aylanadi, degan xulosaga keladi. Shuning uchun ham, jamiyatni insonparvarlashtirishning asosiy sharti xonlik tuzumini tugatishdir, degan fikrni bayon qiladi. Xonlik tuzumini tugatmasdan insonparvar va demokratik jamiyat qurib bo'lmaydi, degan xulosaga keladi. Zavqiy o'z vatanida bugunmi-ertami ana shunday fuqaroviy jamiyat qurilishiga, "zamon inqilob bo'lishi muqarrar" [8; 95-b.]ligiga qattiq ishonardi.

O'zbek milliy madaniyatining yirik namoyandalaridan biri, ma'rifatparvar shoir va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zgarmasdan qolmasligi, baxtli va farovon kunlar kelishiga, "shohlar bir kun gado, bir kun gado shahzod" [9; 33-b.] bo'lishiga qattiq ishonadi. Shuning uchun ham u tinimsiz ravishda inson eng oliy qadriyat deb ulug'lanadigan insonparvar, demokratik jamiyat qurish g'oyasini targ'ib va tashviq qiladi. Fuqarolarni jahon madaniyati yutuqlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning e'tirof etishicha, inson manfaatlarini ulug'lovchi fuqaroviy jamiyat qurmoq uchun, eng avvalo, odamlarni milliy mahdudlik balosidan xoli qilmoq darkor. Uning ta'kidlashicha, agar biz milliy, ayniqsa, diniy qadriyatlarimizga o'ralib yashayversak, ko'p o'tmay bid'atlar orasida yashovchi, faqat ismi bor-u, jismi yo'q bir millatga aylanib qolamiz. Bunday holatda biz kelajak avlodlar oldida kechirib bo'lmas xatoga yo'l qo'yamiz. Shuning uchun ham hozirdan bu dardni davolash yo'llarini izlab topishimiz lozim [10], deydi. Ana shunday yo'l — fuqarolar ongi va shuurini milliy mahdudlik illatidan xoli qilishdir, deb o'ylaydi. Milliy mahdudlik va milliy biqlik illatidan millatni xoli qilmoq uchun fuqarolarni jahon sivilizatsiyasi, xususan, jahon ilm-fani yutuqlari bilan oshno qilish, ularni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash zarur, deb hisoblaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy chor Rossiyasining Turkistonda amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining g'ayriinsoniy mohiyatini ochib tashladi. Chor Rossiyasi chinovniklari va ularning nog'orasiga o'ynayotgan mahalliy amaldorlar, riyokor dindorlarning g'ayriinsoniy xulq-atvori va xatti-harakatlarini uzluksiz masxara qildi. Odamlarga mustamlakachilarga qarshi kurashmoq uchun birlashish zarur ekanligini takrorlashdan charchamadi. "Birlashsun endi boshimiz, maslakka qarshi yoshimiz", "Birlashing Turkiston", "Qo'l ushlashing, birlashing endi, Turkiston", "Haq yo'lida jon bersak, bo'lsak millat qurboni", deb xitob qildi.

Hamza 1917-yil fevral voqealariga katta umid bilan qaragan edi. Fevral voqealari Turkiston xalqlariga erkinlik va hurriyat ato etadi, deb o'ylardi. Shuning uchun ham 1917-yil o'rtalarida yozgan "Uyg'on, Vatan" she'rida: "Ey islom eli! Bu kun millatga o'lsun har na himmatimiz! Bitdi istibdod! Yetsun hurriyat! Bitsun nazorat, qullik asorat!" deb yozgan edi. "Turkiston muxtoriyati" she'rida "To'rt yuz yillik Romanov bitgach davlati ko'tarildi asorat, xo'rlik illati", "Bir sanjoqda to'plansin islom davlati" deb hayqirgan edi. Uning bunday fikr-mulohazalari jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik harakati o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Uning zaminida jadidchilik harakati vujudga keldi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish, boshqacha aytganda, insonparvar va demokratik jamiyat qurish g'oyasi O'rta Osiyoda keng tarqalgan jadidchilik harakatining bosh g'oyasi edi [11; 11-b.].

Jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, Qrim, Qozon, Ufa ilg'or ziyolilarining dinda islohot o'tkazish haqidagi fikr-mulohazalari turtki bo'lganligini unutib bo'lmaydi. Tarix sahnasiga ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib va tashviq qilish bilan kirib kelgan jadidchilik XX asr boshida xalqning demokratik, milliy ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurash harakatiga aylandi. Jadidizm ma'rifatparvarligi O'rta Osiyoda insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi yirik nazariy oqim darajasiga ko'tarildi. Jadidizmning g'oyaviy-nazariy asoslarini yaratishda, uning maqsad va vazifalarini keng

mehnatkashlar ommasiga tushuntirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo‘jayevlarning xizmatlari beqiyos edi.

Jadidizm namoyondalari jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishning asosiy sharti O‘rta Osiyo mamlakatlarida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni o‘zgartirish, xususan, mamlakat boshqaruvini qayta qurish va milliy mustaqillikka erishish bo‘lib, bunday olijanob vazifani maorif tizimini isloh qilishdan boshlash zarur, deb hisoblardilar. Jadidlar milliy mustaqillik manfaatini himoya qila oladigan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy qoloqlikdan olib chiqish muammolarini tushunadigan, zamonaviy bilimga ega bo‘lgan kadrlar bunday ulkan vazifani bajarishga qodir ekanligini yaxshi tushunar edilar.

Jadidlar maorif tizimini isloh qilish bilan birga, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan madaniy merosni o‘rganishga ham e‘tiborni qaratdilar. O‘tmish madaniyati va ma‘naviyatini bilmasdan turib jamiyatni insonparvarlashtirish jarayonida yirik yutuqlarga erishib bo‘lmasligini alohida ta‘kidladilar. O‘z navbatida, milliy qadriyatlar qobig‘iga o‘ralib qolmasdan, boshqa millatlar qo‘lga kiritgan madaniy-ma‘naviy yutuqlarni ham o‘rganish lozimligini qayta-qayta takrorladilar. Umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar, xususan, Yevropaning ilg‘or fani yutuqlarini targ‘ib va tashviq qilishga butun kuchlarini safarbar qildilar.

Jadidizm asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat hayotini insonparvarlashtirish uchun fuqarolarda milliy ongni o‘stirish, millatning milliy o‘zligini anglash zarur, deb hisoblardi. Milliy ong va milliy g‘ururni shakllantirishning eng muhim vositasi maorif deb bilar edi. Maorifni isloh qilmasdan turib jamiyatni insonparvarlashtirib bo‘lmaydi, deb hisoblardi.

Behbudiy islohni maktab va madrasalardan boshlashni taklif qiladi. Ana shu maqsadda birinchilardan bo‘lib, o‘z uyida kambag‘al bolalar uchun yangi usuldagi maktab ochdi. O‘zi o‘sha maktabda jug‘rofiya va adabiyotdan dars berdi. Qisqa vaqt ichida “Qisqacha umumiy jug‘rofiya”, “Bolalar uchun kitob”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi jug‘rofiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha jug‘rofiyasi” singari darsliklar yaratdi. Behbudiy nashriyot tashkil etib, ushbu darsliklarni nashr ettirdi [12; 18-b.].

Behbudiy maktablarda va madrasalarda nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham o‘qitilishining tarafdori edi. Dunyoviy bilimlarni egallamasdan turib hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlab bo‘lmaydi, deb tushuntiradi. Uning fikriga ko‘ra, ikki darajadagi mutaxassislar zarur. Birinchi darajadagi mutaxassislar diniy ma‘lumotli kishilar bo‘lib, ular fuqarolarning ma‘naviy nasihatgo‘ylari, maslahatchilari, islom dini pokligini himoya qiluvchi mutaxassislar bo‘lmog‘i kerak. Ikkinchi darajadagilar esa dunyoviy bilimlarni o‘rganmog‘i darkor. Ular musulmonlar manfaatini ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalarida himoya qiladilar. Mutaxassislarni ko‘plab tayyorlash uchun o‘quvchilarni nafaqat Makka, Madina, Misr yoki Istanbulga, balki Rossiya universitetlari va texnik o‘quv yurtlariga ham yuborishni maslahat beradi. Yangi usul maktablarini o‘qituvchilar bilan ta‘minlash uchun yigit va qizlarni Kavkaz, Qrim, Orenburg va Qozon shaharlariga yuborish zarurligini qayd etadi [13; 13-b.].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyatni insonparvarlashtirish mehnatkashlarning madaniy-ma‘naviy saviyasi bilan bog‘liq ekanligini chuqur anglab yetdi. Fuqarolar madaniy-ma‘naviy saviyasini o‘stirishning eng muhim vositasi zamonaviy, dunyoviy, texnologik fanlarni o‘qish va o‘rganish deb bildi. Shuning uchun ham Samarqandda yangi kutubxona, qiroatxona ochdi. Insonparvar-demokratik jamiyat qurish g‘oyalarini insonlar ongiga singdirish, ularning shuurida ta‘lim va bilimga rag‘bat uyg‘otish uchun “Padarkush” pyesasini yozdi. Ushbu pyesa 1912–1915-yillarda Samarqand, Toshkent, Buxoro, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlar teatrlarida namoyish etildi. “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil etib, ularga muharrirlik qildi. Shuningdek, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiyot”, “Xurshid” singari

gazetalar sahifalarida ilm-ma'rifatni targ'ib qiluvchi maqolalar yozdi. Safdoshlarini yangi jaded maktablari ochishga chaqirdi. Yangi maktablar faoliyati jadallashgan bir paytda chor Rossiyasi o'z mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini ko'rsatdi. Behbudiy dunyoviy bilimlarni egallash uchun yoshlar ko'proq til o'rganishlari zarur, deb bilardi. O'z ona tili bilan cheklanib qolmay, ilm-fan jadal rivojlanayotgan Yevropa xalqlari tillarini ham o'rganish darkorligini uqtiradi. Boshqa dinlarga mansub kishilar tilini o'rganish islom dini qoidalariga zid emasligini ta'kidlaydi va o'zi rus tilini o'rganadi. Bolalarga ham rus tilidan dars beradi.

Behbudiyning fikriga ko'ra, jamiyatni insonparvarlashtirishning eng muhim omillaridan biri xalqlar o'rtasidagi do'stlik-birodarlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirishdir. Ayniqsa, ko'p millatli mamlakat sharoitida turli millat vakillarining yakdil bo'lishi, inoq yashashi va ishlashi demokratik jarayonlarni amalga oshirish garovi ekanligini alohida ta'kidlaydi [14; 14-b.].

Jadedchilik harakatining ayrim namoyondalari, masalan, Hoji Muin Shukrullo, jamiyatni insonparvarlashtirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish uchun barcha turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish zarur, deb o'ylardilar. Bunday g'oya ijodkori qrimlik Ismoil Gaspirali edi. Uning tushuntirishicha, yagona turkiy til turk va tatar tillari zaminida vujudga kelishi darkor edi. Turgan gapki, bu g'oya turli munozaralarga sabab bo'ldi. Ushbu g'oyani qo'llab-quvvatlagan ayrim turkistonlik jadedlar turkiy tillarga arab, fors va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni chiqarib tashlash lozim, degan fikrlarni bayon qildilar. Behbudiy esa turkiy xalqlar tiliga arab, fors va boshqa tillardan asrlar davomida kirib kelgan so'zlarni chiqarib tashlash xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish o'rniga uzoqlashtirishi mumkinligini aytadi. Turkiy xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishning eng to'g'ri yo'li fors, arab va rus tillarini o'rganishdir. Chunki arab tili dinimiz tili bo'lsa, fors tili madrasa va ulamolar tili, turk tili esa Turkiston aholisining asosiy qismi tilidir. Rus tilini bilmasdan turib savdo-sotiq, sanoat taraqqiyoti hamda din va millatga xizmat qilib bo'lmaydi, degan edi [15; 15-b.].

Mahmudxo'ja Behbudiyning e'tirof etishicha, jamiyat hayotini insonparvarlashtirishning eng muhim sharti milliy mustaqil davlat va milliy armiyani shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Chunonchi, o'zining "Bayoni haqiqat" maqolasida Turkistonning mustaqil milliy armiyasini shunday tasavvur qilgan edi: "Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasin va bizning ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q... Rusiya musulmonlarining har bir shu'basini muhit va jug'rofiy mamlakatlari hududi tarbiyasi bo'yicha ayrim bo'laklarga bo'linib, o'z taraflaridan o'z hurriyat va odatlariga muvofiq idora qilinsa... Biz istaymizki, Turkiston hukumati ta'sis etsak, o'zimizning parlamentimiz bo'lsa. Turkiston musulmonlari o'z shariat va odatlariga, o'z qonun va dinlariga muvofiq tiriklik qilsunlar... Bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo'lsun... Milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarz-maishatini o'zimiz tayin qilurmiz" [16; 319-b.].

Behbudiyning fikriga ko'ra, davlatni boshqarishda mamlakatning turli din, millat va elatlarga mansub fuqarolari ishtirok etishlari darkor. Mamlakatda xalqaro demokratiya normalari asosida parlament saylovlari o'tkazilganda turli millat va elatlarning teng huquqli ishtiroki ta'minlanishi lozim. Fuqarolar orasida do'stlik va birodarlik bo'lishi, turli millat va elatlarning tili, dini va urf-odatlari daxlsizligi ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur ekanligini ta'kidlaydi.

Behbudiy jamiyatni to'la insonparvarlashtirish uchun mamlakatni idora qilish usullarini tubdan o'zgartirish lozim, deb hisoblaydi. Mamlakat siyosiy-ijtimoiy boshqaruvini isloh qilishga, milliy mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan bir qator takliflar beradi [17].

Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish fuqarolarning milliy ongi va milliy g'ururi bilan bevosita bog'liq ekanligini ancha erta tushunib yetgan jadedizm namoyondalaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov edi.

Munavvarqori g'oyaviy maslakdoshi Mahmudxo'ja Behbudiy singari kishilarning milliy ongi ta'lim-tarbiya bilan chambarchas aloqador, degan xulosaga keldi va Toshkentda 1906-yilda

yangi uslubdagi maktab ochdi. Tez orada uning maktabi Turkiston jadid maktablari uchun namunaviy maktabga aylandi.

Munavvarqori tashkil qilgan jadid maktabi ikki bosqichli edi. Birinchi bosqich to'rt yillik boshlang'ich ta'lim maktabi bo'lib, unda bolalarga umumiy, diniy va dunyoviy bilim asoslari o'rgatilardi. Ikkinchi bosqich yetti yillik maktab bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim maktablari uchun muallimlar va mahalla masjidlariga imomlar tayyorlanardi. Bunday maktablarni tugatgan o'smirlar savdo-sotiq va kundalik turmush uchun zarur amaliy bilimga ega bo'lib, oliy ma'lumot olish uchun madrasalarda va xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lardilar. Munavvarqorining maktabida 1915-yilda 150 o'quvchi saboq olgan, ularning 30–35 foizi kambag'al oilalar farzandlari bo'lib, bepul o'qitilgan. Ular o'quv dasturlari va qurollari bilan ham bepul ta'minlangan. Qolganlari esa baholi qudrat, o'qish uchun har oyda 50 tiyindan bir yarim so'mgacha pul to'lagan. Ba'zi boy oilalar ikki so'mdan pul berib turgan. Shuningdek, bu maktabga Munavvarqori va uning safdoshlari tashkil etgan "Ko'mak" musulmon xayriya jamiyati ham har oyda 50 so'm yordam ko'rsatgan [18; 24-b.].

Jadidizm namoyondalari, xususan, Munavvarqori jamiyatni insonparvarlashtirish, ayniqsa, fuqarolarni milliy mustaqillik harakatiga to'la safarbar etish, aholi turli tabaqalari va qatlamlarining madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ularning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari bo'lishi zarur, deb hisoblar edilar. Ana shu tashkilotlar yordamida aholining katta qismi jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish ishlarida ishtirok etishi lozim, deb bilganlar.

Jadidlar ma'naviy merosi inson va jamiyat masalasini har tomonlama yoritib beruvchi boy ilmiy-manba sifatida e'tirof etiladi. Ularning ilg'or g'oyalari nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois jadidlar merosini chuqur o'rganish, uni ta'lim tizimiga keng joriy etish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kun ilm-fani oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Jadidlar ma'naviy merosida jamiyat va inson munosabatlari masalasi ijtimoiy-falsafiy, gnoseologik hamda aksiologik yondashuvlar asosida chuqur konseptual darajada talqin etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid mutafakkirlari insonni jamiyat taraqqiyotining determinatsion omili, ijtimoiy transformatsiya jarayonining asosiy subyekti sifatida qarab, shaxs kamolotini ijtimoiy progress bilan dialektik birlikda tahlil qilganlar.

Jadidchilik paradigmasida jamiyatning modernizatsiyasi va sivilizatsion rivoji bevosita inson kapitalining intellektual salohiyati, ma'naviy-axloqiy kompetensiyasi hamda ijtimoiy faollik darajasiga bog'liq ekani asoslab beriladi. Bu yondashuvda ta'lim-tarbiya tizimi ijtimoiy rekonstruksiya va madaniy transformatsiyaning strategik mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, jadidlar merosida insonning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiylashuv, madaniy identifikatsiya va ma'naviy refleksiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekani ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Ularning konsepsiyasida erkin fikrlash, ratsional tafakkur, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish jamiyat barqarorligini ta'minlovchi fundamental determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Jadidlarning jamiyat va inson haqidagi qarashlari zamonaviy sotsiologiya, pedagogika va ijtimoiy falsafa yutuqlari bilan metodologik uyg'unlik kasb etadi. Xususan, ularning g'oyalari ijtimoiy adolat, ma'rifiy progress, milliy identiklikni saqlash hamda modernizatsion rivojlanish o'rtasidagi dialektik muvozanat konsepsiyasi yaqqol ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma'naviy merosi jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro determinatsion bog'liqlikni ochib beruvchi integral ilmiy tizim sifatida ahamiyatlidir. Ushbu merosni zamonaviy ilmiy paradigmalarda qayta talqin qilish, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga implementatsiya etish hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar metodologiyasiga integratsiya qilish bugungi kun ilmiy-amaliy taraqqiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, jadidlar qarashlarida jamiyat va inson o'rtasidagi uyg'unlik masalasi alohida o'rin tutadi. Ular shaxs erkinligi va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlab, har

bir insonni jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglagan holda yashashga undaganlar. Bu esa zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Zohidiy A. Ma'rifatchilik: o'qilmagan sahifa // Muloqot. — 1993. — № 2. — B. 22–26.
2. Choriyev A. Inson falsafasi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. — 306 b.
3. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe'. — Toshkent, 1964. — B. 166.
4. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe'. — Toshkent, 1964. — B. 165.
5. Turkiston viloyati gazetasi. — 1895. — № 8.
6. Furqat. Tanlangan asarlar. — Toshkent, 1975. — B. 184–185.
7. Muqimiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent, 1959. — B. 185.
8. Zavqiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent, 1959. — B. 95.
9. Hamza. Mukammal asarlar to'plami. 4 jildlik. 2-jild. — Toshkent, 1981. — B. 33.
10. Hasanov F. Ma'naviyat yulduzlari. — Toshkent, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik, taraqqiyot uchun kurash. — Toshkent, 1999.
12. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. — Toshkent, 1994. — B. 18.
13. Oyna jurnali. — 1913. — № 7.
14. Ulug' Turkiston gazetasi. — 1917. — 12-iyun.
15. Oyna jurnali. — 1915. — № 12.
16. Choriyev A. Inson falsafasi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. — B. 319.
17. Xurshid gazetasi. — 1906. — № 6; Oyna jurnali. — 1913. — № 9; Oyna jurnali. — 1914. — № 11.
18. Xolbekov S. Munavvar qori // Muloqot. — 1997. — № 1. — B. 24–25.